

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.05.2022.Ped.16.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**...JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**XOLMURODOV A'ZAM SHAXRIYOROVICH**

**NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM  
MAKTABLARI PEDAGOG KADRLARINING MALAKASINI OSHIRISH  
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.07 – Ta'limda menejment**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Doktorlik (DSs) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**  
**Contents of dissertation abstract of doctoral of science (DSc)**

**Xolmurodov A'zam Shaxriyovich**

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish.....3

**Холмуродов Аъзам Шахриёрович**

Совершенствование механизма повышения квалификации педагогических кадров общеобразовательных школ в негосударственных образовательных организациях.....27

**Kholmurodov Azam Shakhriyovich**

Improving the mechanism for advanced training of teaching staff of general education schools in non-state educational organizations.....53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.05.2022.Ped.16.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**\_\_\_JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**XOLMURODOV A'ZAM SHAXRIYOROVICH**

**NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM  
MAKTABLARI PEDAGOG KADRLARINING MALAKASINI OSHIRISH  
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.07 – Ta'limda menejment**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Ped291 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy-kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz.) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Musurmanova Aynisa**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Usmonov Botir Shukrullayevich**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Quysinov Odil Alimuratovich**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Mardonov Shukrullo Qo‘ldoshevich**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.05.2022.Ped.16.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: +998 71 239 01 43, +998 71 239 01 49, +998 71 239 28 09; faks: (0 371) 239-41-23 (99871) 246-06-69; Web-site:www.tsue.uz; E-mail: info@tsue.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 227-12-52; faks: (99871) 246-06-69.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2023-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli restr bayonnomasi).

**M.F.Xakimova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

**Sh.E.Mamarajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash kotibi, ped.f.n., dotsent

**D.O. Himmataliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, ped.f.d., professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahondagi globallashtirish jarayonlari ta'lim modellariga ham o'z ta'sirini o'tkazib, innovatsion ta'lim, ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasi va integratsiyasida namoyon bo'lmoqda. UNESCO tahlillari asosida "texnologiya va raqamli resurslardan maksimal darajada foydalanish asosida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan dizaynini yaratish"<sup>1</sup> qo'llab-quvvatlanmoqda. "Learning never stops" ("Ta'lim hech zamon to'xtamaydi") g'oyasi asosida uzluksiz kasbiy ta'lim metodologiyasi rivojlanmoqda. Bugungi kunda "raqamlashgan" jamiyatlar hukm surayotgan bo'lib, kelgusi iqtisodiy o'sish yangi texnologik inqilobni vujudga keltirishi va butun dunyo yana bir bor tamomila yangi iqtisodiy bosqich va munosabatlarga o'tishi bashorat qilinmoqda. Bu esa kadrlar malakasini oshirish tizimida "inson kapitali"ni uzluksiz rivojlantirish bilan bog'liq transformatsion o'zgarishlarni taqozo etadi.

Dunyoda nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishga doir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan: evtagogik yondashuv asosida pedagog kadrlar malakasini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish; akmetexnologiyalar vositasida uzluksiz kasbiy rivojlanish metodologiyasini yaratish; transformatsion sharoitida xususiy sektorning ta'lim xizmatlari sohasidagi pedagogik imkoniyatlarini modellashtirish; marketing texnologiyalari vositasida malaka oshirish sifat menejmenti tizimini takomillashtirish, o'qituvchilar professional malakasini oshirish mexanizmlarini ("development education", "education training", "training program", "coaching program") takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada zamonaviy va innovatsion talablardan kelib chiqqan holda, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida ta'lim xizmatlari sohasi tashkiliy-pedagogik mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari va modellarini ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim sifatini oshirish, hayot davomidagi ta'lim tamoyili asosida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, nodavlat sektor ulushini kengaytirish, xususan, pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarida ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"<sup>2</sup>da xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlashning ilg'or shakl va usullarini joriy etish, o'quv-metodik resurslarini ishlab chiqish, ta'lim dasturlarini takomillashtirish, umume'tirof etilgan xalqaro ta'lim standartlari va talablari, ilg'or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari asosida o'quv jarayonini sifatli tashkil etish belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosi pedagog kadrlar malakasini oshirishning tashkiliy-boshqaruv, pedagogik mexanizmlarini kasbiy ta'lim sifatini oshirish borasidagi innovatsion yondashuvlar asosida

---

<sup>1</sup> UNESCO. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. COVID-19 Educational Disruption and Response. 2020. <https://unesco.org/covid19/educationresponse>.

<sup>2</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son.

takomillashtirishni, malaka oshirish tizimida nodavlat ta'lim tashkilotlari xizmatlarini rivojlantirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi**<sup>1</sup>. Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumta'lim maktablari pedagog kadrlarini malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahon miqyosidagi yirik ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, "Skolkovo" Innovatsion markazi (Rossiya); Koreya ta'limni rivojlantirish instituti (KEDI), Koreya o'quv dasturlari va baholash instituti (KICE), Aminuddin Baki nomidagi Ta'limning rahbar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (Malayziya); Finlyandiya akademiyasi (Academy of Finland); pedagogical technology, Oxford University, Cambridge University (Buyuk Britaniya); University of Toronto (Kanada), European Sociological Association, Delhi University (Hindiston); Istanbul University, Ankara University, Gazi University (Turkiya), A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumta'lim maktablari pedagog kadrlarini malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha jahonda qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, quyidagi ilmiy natijalar olingan: geymifikatsiya texnologiyalariga asoslangan kasbiy rivojlanish platformalari ishlab chiqilgan ("Skolkovo" Innovatsion markazi), o'qituvchilarning AKT kompetensiyalarini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida maktab ta'limining sifatini

---

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://arts.unimelb.edu.au/nceis>; <https://www.westernsydney.edu.au> <http://www.istanbul.edu.tr/tr>; <https://www.ankara.edu.tr>; <http://gazi.edu.tr>; <https://www.orientalstudies.az/ru>; <http://literature.az/?lang=aze>; <http://www.kaznu.kz/ru>; [www.iaas.msu.ru](http://www.iaas.msu.ru); <https://www.ivran.ru>; <https://spbu.ru>; [www.orient.spbu.ru/ru](http://www.orient.spbu.ru/ru); <http://tashgiv.uz/ru/>; <http://navoiy-uni.uz/uz-k>; <http://www.samdu.uz> va boshqa manbalar asosida amalga oshiriladi.

oshirish texnologiyalari (UNESCO ICT Competency Framework for Teachers); ta'limda kollektiv yondashuvni joriy etish mexanizmlari innovatsion ekotizimda ijtimoiy hamkorlik tamoyillari asosida takomillashtirilgan (University of Melbourne; University of Western Sydney, UTS); o'qituvchi mehnatini zamonaviy ta'lim strategiyalarini belgilash: mobil ta'lim, masofaviy ta'lim, elektron ta'lim asosida malaka oshirish shakllarini diversifikatsiyalash va ta'lim xizmatlarining sifatini oshirish texnologiyalariga asoslangan (University of Chicago, Princeton University, Indiana University Bloomington, American Academy of Political and Social Science, Oxford University, Cambridge University, University of Toronto, Yevropa sotsiologik assotsiatsiyasi), AKT asosida ta'lim ta'minotining milliy bazasini yaratish, o'qituvchilarni innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirishning elektron tizimining dasturiy ta'minoti yaratilgan (Delhi University Istanbul University, Ankara University), maktab ta'limi o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish platformasi joriy etilgan (A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti).

Jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda: kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagog kadrlar malakasini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish; raqamli texnologiyalar asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish metodologiyasini yaratish; transformatsion sharoitda nodavlat ta'lim tashkilotlarining ta'lim xizmatlari sohasidagi pedagogik imkoniyatlarini modellashtirish; marketing texnologiyalari vositasida malaka oshirish sifat menejmenti tizimini takomillashtirish va boshqalar.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Uzluksiz ta'lim tizimi pedagog kadrlari kasbiy mahoratini rivojlantirish, pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini shakllantirish, pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish masalalari bo'yicha mamlakatimiz olimlari R.H.Jo'rayev, O.Jamoldinova, J.G'.Yo'ldoshyev, O.Musurmonova, Sh.Mardonov, U.K.Tolipov, Sh.Qurbonov, Sh.Sharipov, B.Shermuhamedovlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Zamonaviy ta'lim sharoitida AKT vositasida malaka oshirish jarayonlarini takomillashtirish U.Begimqulov, N.Muslimov, F.Zokirova, Q.Olimovlar tomonidan tadqiq etilgan. Ta'lim menejmentining ilmiy-pedagogik asoslari, pedagogik ta'lim menejmenti, malaka oshirish jarayonlarida ta'lim sifati va innovatsion menejmentni joriy etish masalalari U.Inoyatov, B.Usmonov, Y.Ismadiyarov, M.Mirsoliyeva, U.Xodjamqulov, M.Yuldashevlar tadqiqotlarida o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan FGOS (Федеральные государственные образовательные стандарты) talablari asosida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligi mazmuni, tuzilmasi, marketing texnologiyalarining malaka oshirish ta'lim xizmatlari sifatiga ta'siri bilan bog'liq ilmiy masalalar T.Bazarov, V.N.Gerasimov, P.N.Gorodov, V.P.Davidov, V.A.Slastenin, Y.Tatur kabilarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan R.J.Marzano, P.Drucker, W.Blum, U.Klusmann, S.Krauss, A.Hakim, R.John, D.Mixayellar tomonidan ta'lim xizmatlari, innovatsion menedjment, malaka oshirish jarayonlarining tashkiliy-pedagogik yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqotlar tahlilidan ko'rinadiki, pedagog kadrlar, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish bilan bog'liq ko'plab yondashuvlar ilgari surilgan. Biroq, innovatsion ta'lim muhiti va ta'limdagi globallashtirish jarayonlarida ehtiyojlarga yo'naltirilgan malaka oshirish ta'lim xizmatlarini tashkil etish, malaka oshirish ta'lim dasturlarining amaliyotga yo'nalganligini ta'minlash, ularning variativligi va xilma-xilligini oshirish borasidagi ijtimoiy-pedagogik zarurat, mamlakatimizda nodavlat ta'lim tashkilotlarining umumiy ta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirish bo'yicha tashkiliy-pedagogik mexanizmi masalasi yetarlicha o'rganilmaganligi ko'zga tashlandi.

**Dissertatsiya tadqiqoti dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi hamda O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filialining 5-sonli "Ta'lim muassasalari uchun zamonaviy boshqaruv faoliyatini rivojlantirishning innovatsion inspirativ psixologik platformasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi** nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlari malakasini oshirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ta'limdagi transformatsion jarayonlarda umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlari malakasini oshirish mazmuni, yo'nalishlari va pedagogik-psixologik, andragogik talablarini yoritish;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirishni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik zarurati, huquqiy-me'yoriy asoslari, tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ilmiy-nazariy asoslash;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlari malakasini oshirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish;

marketing texnologiyalari vositasida nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirish tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash, modelini takomillashtirish;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlari malakasini oshirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini samaradorlik va natijadorlik darajasini belgilash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlari malakasini oshirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni belgilangan. Tajriba-sinov ishlarida "Ziyo muallim pedagoglar rivojlanish markazi", "Turon international school group" va "Tafakkur charxpalagi" nodavlat ta'lim tashkilotlarining rahbar kadrlari



va pedagoglari hamda Samarqand va Surxondaryo viloyatlari Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi rahbarlari, pedagoglari va tinglovchilari jami 447 nafar respondent-tinglovchilar ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmeti** nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlari malakasini oshirish mazmuni, tashkiliy-pedagogik mexanizmlari, shart-sharoitlari, shakl, vosita va metodlaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, retrospektiv tahlil, suhbat, modellashtirish, so'rovnoma, monitoring, kuzatish, intervyu, test, pedagogik tajriba-sinov, analitik obzor, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlari ko'rsatishdagi pedagogik jarayonlarni ta'minlovchi imkoniyatlari va normativ-huquqiy asoslari malaka oshirish mazmuni va shaklining ehtiyojlarga, tinglovchilar faoliyatining xususiyatiga yo'naltirilganlik asosida takomillashtirilgan;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlari malakasini oshirish, ta'lim jarayonining tashkiliy-pedagogik va boshqaruv mexanizmlari aniqlashtirilib, uning pedagogik mazmuni, definititsiyasi, ustuvorligi, shart-sharoitlari va samaradorlik omillari belgilangan;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirishga oid xorij tajribasini mamlakatimiz pedagogik ta'lim sharoitiga muvofiqlashtirilishiga ko'ra implementatsiya qilish shart-sharoitlari aniqlangan;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida ichki sifat menejmentini joriy etish mexanizmlari marketing texnologiyalariga asoslangan ehtiyojlar diagnostikasi, ta'lim xizmatlari turi va moslashuvchanligi, ta'lim sifati monitoringi va samaradorlik ko'rsatkichlari hamda refleksiv ta'sir komponentlarini ta'lim jarayoniga kiritish asosida takomillashtirilgan;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini boshqarishning eksperimental darajasi va uning samaradorligini baholash mezonlari, darajalari hamda mexanizmlarini takomillashtirishda individual yondashuv va jamoatchilik sifat nazoratini kuchaytirish faoliyat natijadorligini yanada oshirishga olib kelishi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalarini quyidagilar** bilan belgilash mumkin:

nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirishdagi imkoniyatlari aniqlashtirilgan, malaka oshirish ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan zamonaviy talablar takomillashtirilgan;

innovatsion yondashuv asosida nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirilgan;

marketing texnologiyalari vositasida nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish va samaradorligini baholash (KPI) ning kvalimetrik tizimi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nodavlat ta'lim tashkilotlarining umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlari malakasini oshirish tashkiliy-

pedagogik mexanizmlariga yo'naltirilgan ilmiy-nazariy yondashuv, qarash va g'oyalar, jahon tajribasi o'rganilganligi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot usullari, metodik ta'minot amaliyotga joriy etilganligi, tajriba-sinov ishlari reprezentativligi, matematik-statistik tahlil tadqiqot samaradorligini tasdiqlanganligi bilan belgilangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nodavlat ta'lim tashkilotlarining umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlari malakasini oshirish tashkiliy-pedagogik mexanizmlariga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni boshqarish va tashkil etish mazmuni takomillashtirilganligi, innovatsion texnologiya va interfaol metod, shakl, vosita, yo'llar belgilab berilganligi, ular tajriba-sinovdan o'tkazilganligi, taklif etilgan innovatsion pedagogik tizimning samaradorligi aniqlanganligi, innovatsion nazariy yondashuvlar, pedagogik andoza, qarash va g'oyalar joriy etilganligi bilan belgilangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalar, taklif va tavsiyalar o'qituvchilar malaka oshirish tizimi mazmunini boyitganligi, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni innovatsion mazmunda tashkil etishga xizmat qilganligi, olingan natijalardan soha mutaxassislari, xususan, professor-o'qituvchilar, yosh tadqiqotchilar, fuqarolik jamiyati mutasaddilari o'z amaliy faoliyatlarida foydalanishlari mumkinligi bilan belgilangan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlarning malakasini oshirishni tashkil etishning administrativ tuzilmasi, ish faoliyatini tashkil qilish, yo'nalishlari, maqsadlari va tamoyillari bilan bog'liq tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 31-moddasi oltinchi xatboshini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan hisobga olingan va qabul qilingan (Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 06.12.2022-yildagi 02/4-223-sonli xati hamda Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining 2022-yil 5-dekabrda dalolatnomasi). Natijada nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning normativ-huquqiy asoslari, mexanizmlarini belgilashga xizmat qilgan;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlari malakasini oshirishda ta'lim jarayonining boshqaruv mexanizmlariga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 34-moddasi beshinchi xatboshini shakllantirishda hisobga olingan va foydalanilgan (Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 06.12.2022-yildagi 02/4-223-sonli xati hamda Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining 2022-yil 5-dekabrda dalolatnomasi). Natijada nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish va amalga oshirishning huquqiy-institutsional asoslari takomillashtirilgan;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirishga oid pedagogik jarayonni tizimli tarzda

tashkillashtirish va loyihalash omillari, tuzilishi, komponentlarida xorijiy davlatlar tajribasini implementatsiya qilish shart-sharoitlariga oid takliflardan Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi Nizomni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 02-02/3-3140-sonli ma'lumotnomasi). Natijada umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish jarayoniga ta'lim xizmatlarini joriy etish tartibining normativ-huquqiy asoslari shakllantirilgan;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida ichki sifat menejmentini joriy etish mexanizmlari marketing texnologiyalariga asoslangan ehtiyojlar diagnostikasi, ta'lim xizmatlari turi va moslashuvchanligi, ta'lim sifati monitoringi va samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) hamda reflektiv ta'sir komponentlarini kiritish asosida takomillashtirish bo'yicha takliflardan nodavlat ta'lim tashkilotlarida malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 02-02/3-3140-sonli ma'lumotnomasi). Natijada nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablar asoslangan;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini boshqarishning eksperimental darajasi, uning samaradorligini baholash mezonlari, darajalari hamda pedagogik jarayon mexanizmlari, uni loyihalashtirish modellari, texnologiyalariga oid takliflardan pedagog kadrlar malaka oshirish kursi natijalarini baholash tartibini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 02-02/3-3140-sonli ma'lumotnomasi). Natijada malaka oshirish jarayonlarining sifat menejmenti tizimi takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 31 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 11 ta, shundan respublika jurnallarida 9 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola va 1 ta monografiya chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya ishi kirish, to'rt asosiy bob, 181 sahifa, matn, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti aniqlashtirilgan, ilmiy yangiligi bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Umumiy oʻrta taʼlim maktablari pedagog kadrlari malakasini oshirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot muammosiga doir ilmiy-nazariy adabiyotlarning qiyosiy tahlili asosida pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etishning retrospektiv tahlili, zamonaviy taʼlim muhitida umumiy oʻrta taʼlim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni va shakllari, shuningdek, pedagog kadrlar uzluksiz malakasini oshirishning ilgʻor xorijiy tajribalari tahlili yoritilgan.

Maʼlumki, malaka oshirish bu uzluksiz taʼlim usullaridan hisoblanib, katta yoshlilar uzluksiz taʼlimini tashkil etishning samarali shakli hisoblanadi. Shu bilan birga, malaka oshirish - bu xodimlarni kasbiy tayyorlash turlaridan biri boʻlib, uning maqsadi nazariy bilimlar, amaliy koʻnikmalar darajasini oshirish va davlat taʼlim standartlari talablariga muvofiq kompetensiyalar tizimini rivojlantirishdan iborat.

Tahlillardan kelib chiqadiki, malaka oshirish jarayonlarida: a) taʼlim oluvchilar guruhining tajribasi, ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, oʻqitishning turli shakl, metod va vositalarini belgilash; b) taʼlimning amaliy yoʻnaltirilganligi; v) tinglovchilarning mavjud ish tajribalarini almashish, yangi gʻoyalar, tashabbuslar yaratish uchun ijobiy kayfiyatdagi “ijod maydoni”ni yaratish, ularning mustaqil kasbiy rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillarga alohida eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

Amerikalik tadqiqotchilar V.I.Sessa va M.Londonlar uzluksiz kasbiy rivojlanishda adaptiv, generativ va transformativ taʼlimni ajratib koʻrsatadilar. Adaptiv taʼlim moslashuvchan tizim boʻlib, atrofdagi talablar yoki imkoniyatlarga qarab oʻzgaradi yoki moslashadi; generativ taʼlimda yangi hulq-atvor, koʻnikma va kompetensiyalar izlashga va ularni kasbiy faoliyatda sinab koʻrishga tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlashga yoʻnaltirilgan muhit yetakchi hisoblanadi. Transformativ taʼlim bu qayta tiklash va ish uslubini tubdan oʻzgartirish, refleksiya, oʻz-oʻzini boshqarish, kognitiv va kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish korporativ taʼlimga yoʻnaltirilgan jarayon sanaladi. Tadqiqotchi T.A.Vasilkova kattalar taʼlimidagi yetakchi motivlar sifatida quyidagilarni aniqlaydi: moddiy (yangi kasbni egallash, moddiy boylikni oshirish); ijtimoiy (ijtimoiy maqomni yaxshilash); ichki (barqarorlashtirish); akmeologik (raqobatbardoshlikni oshirish, oʻz imkoniyatlarini toʻlaqonli roʻyobga chiqarish); muayyan kasbiy yutuqlarga erishish, lavozimda oʻsish. M.Yuldashev esa, malaka oshirish tizimiga murakkab tarkibga ega boʻlgan ijtimoiy tizim sifatida qarab, undagi taʼlim sifati isteʼmolchilarning talablariga muvofiqlikni tushunish mumkin, deya izohlaydi.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanish davrida, mutaxassislarda axborotlarni oʻzlashtirish va qayta ishlash, ularni kasbiy faoliyatda qoʻllash bilan bogʻliq koʻnikmalarni rivojlantirish bilan birga, tizimli ravishda mustaqil oʻz-oʻzini shaxsiy va kasbiy rivojlantirish kompetensiyasining shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, taʼlimdagi innovatsion tendensiyalar va transformatsion jarayonlar malaka oshirish jarayonlarining nafaqat maqsadi, mazmuni, shu bilan birga tashkiliy-metodik taʼminotiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Bu borada malaka oshirish jarayonlarining ehtiyojlarga yoʻnalganligi, uzluksizligi, muammoli oʻqitish texnologiyalari, tajribaga

asoslangan ta'lim modeliga asoslanganligi, shuningdek, ta'lim jarayonlarida tinglovchilarning kasbiy-ijodiy, innovatsion salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'lim texnologiyalarining joriy etish zarurati mavjudligini ko'rsatdi.

Amaliyotda pedagog kadrlar malakasini oshirishning qisqa muddatli kurslar; muammoviy (maqsadli) kurslar; ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'zini-o'zi kasbiy va shaxsiy rivojlantirishga yo'naltirilgan - ijodkor pedagog huzurida malaka oshirish (asosan mualliflik kurslari); telekurslar, onlayn kurslar; masofadan turib o'qitiladigan qisqa muddatli kurslar kabi qator noformal shakllari ham amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Fikrimizcha, malaka oshirish tizimidagi mazkur shakllar ta'lim jarayonlarini markazlashgan holda tashkil etish, yagona boshqaruv va nazorat-baholash tartibini joriy etish uchun qulaylik yaratsada, ammo mazkur jarayonlarni tashkil etishning amaliy mexanizmlarini to'laqonli amaliyotga tatbiq etilmaganligi, o'z ustida ishlagan pedagog-rahbar xodimlarni rag'batlantirish va tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari asosida o'qitishning yo'lga qo'yilmaganligi, shuningdek, ta'lim mazmuni ta'lim xizmatlarining iste'molchisi, ya'ni tinglovchi (o'qituvchi, mutaxassis, direktor va boshq.)ning ehtiyojlariga yo'naltirilmaganligi bu boradagi jiddiy muammolar va bo'shliqlarni yuzaga keltirdi.

Shu bilan birga pedagog kadrlar malakasini oshirish borasidagi xorijiy tajribalarni tahlil qilish ularning o'ziga xos differensial xususiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, XXI asr boshlarida Amerikada pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirishda o'quv jarayonini diversifikatsiya qilish, malaka oshirish tizimida ta'lim xizmatlari marketingini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, mentorlik tizimini rivojlantirish, kasbiy malakalarni muddatli o'zlashtirishdan, uzluksiz kasbiy rivojlanish, hayot davomidagi ta'lim (lifelong learning) yondashuvlariga ustuvorlik berilgan. Buyuk Britaniyadagi o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi o'qituvchining "yangi", "yosh bitiruvchi"dan "mutaxassis" gacha rivojlanishiga ko'maklashish uchun mo'ljallangan. Malaka oshirish tizimi maktabga yo'naltirilgan ta'lim modeliga asoslanadi, ya'ni malaka oshirish ta'limi mazmuni o'quvchilarning individual ehtiyojlariga emas, balki aniq maktablarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'ladi. Malaka oshirish muassasalarida ko'proq ta'lim oluvchilarga nisbatan maslahatchi (tyutorlik), ijodiy ishlarning tashkilotchisi sifatida qarab, faol o'qitish usullari hamda amaliyot bazalarida (maktab, kollej va boshq.) o'quv jarayonlarini tashkil etishga e'tibor qaratiladi. Yaponiyada maktab jamoasi o'zi uchun muhim bo'lgan yo'nalishlarni belgilab, o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etadi. Malaka oshirish tizimidagi ilg'or tajribalardan yana biri bu ta'limdagi, xususan, malaka oshirish tizimidagi vaucher tizimi hisoblanadi (Ispaniya, Italiya, Rossiya, Finlandiya).

Tadqiqot doirasida AQSh, Yaponiya, Finlandiya, Buyuk Britaniya va O'zbekistondagi pedagog kadrlar malakasini oshirish mazmuni, shakllari, boshqaruv mexanizmlari bilan bog'liq qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, birinchidan, rivojlangan davlatlarda malaka oshirish ta'lim

tizimining tashkiliy-boshqaruv tizimidagi o'ziga xosliklarning mavjudligi (Shvetsiya, Finlandiya); ikkinchidan, xorijiy amaliyotda malaka oshirish ta'lim muassasalarining aksariyat qismi oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritib, bunda malaka oshirish jarayonlarida ta'lim, fan va amaliyot integratsiyasiga alohida e'tibor qaratilib, ilmiy-innovatsion ishlanmalar hamda soha yutuqlarini pedagog kadrlar tomonidan tezroq va samarali o'zlashtirilishiga erishiladi; uchinchidan, rivojlangan davlatlarda ta'lim muassasalari akademik va moliyaviy mustaqillikka ega bo'lib, faoliyatining asosiy yo'nalishi ta'lim, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashirish bilan bog'liq bo'lgan davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmaydigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish huquqiga ega hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida malaka oshirish tizimidagi ta'lim xizmatlarini rivojlantirishga tashkiliy-boshqaruv jihatidan imkoniyat yaratadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlanib, unda nodavlat ta'lim tashkilotlari sharoitida pedagoglarning kasbiy rivojlanishining o'ziga xosligi, nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish strategiyalari yoritilgan.

Malaka oshirish tizimiga bo'lgan innovatsion yondashuvlar nafaqat malaka oshirish mazmuni, shakllari, vositalariga nisbatan, aksincha, umumta'lim maktabi xodimlarining malakasini oshirishni tashkil etishning institutsional tuzilmasi, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, sohaga marketing tadqiqotlari va ta'lim xizmatlarini tashkil etish mexanizmlarini keng joriy etish zaruratini yuzaga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi “Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3276-sonli qarorining qabul qilinishi nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish, ta'limning yuqori sifatini ta'minlashda davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratishning normativ-huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Nodavlat ta'lim tashkilotining maqsadi - tinglovchilarga Davlat talablari doirasida an'anaviy ta'lim xizmatlari bilan bir qatorda sifatli va ommabop ta'lim olishning muqobil imkoniyatlarini yaratadigan pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ilg'or xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda o'qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslublari hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish asosida umumiy o'rta ta'lim sohasidagi samaradorlik va natijadorlikni oshirishga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarlikning zaruriy darajasini ta'minlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunining 31-moddasida aynan nodavlat ta'lim tashkilotlarining kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatishi bilan bog'liq talablar ham belgilangan.

Tadqiqotlarimiz davomida umumta'lim maktabi rahbar va pedagog kadrlarining nodavlat ta'lim muassasalaridagi malaka oshirish faoliyatini tashkil etish va uning o'ziga xosligi bilan bog'liq masalalarga munosabatini bilish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma jarayonida "Siz nodavlat ta'lim tashkilotlarida malaka oshirish samara beradi deb o'ylaysizmi?" degan murojaatimizga pedagog-respndentlar orasida, "albatta, samara beradi, chunki o'z ustida ishlaydigan, vaqtini qadrlaydigan mutaxassis bugungi kunda nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'qimoqda (32%), u yerda ta'lim sifati birmuncha yaxshi (47,2%)"- degan javoblarni berishgan bo'lsa, respndentlar o'rtasida, nodavlat ta'lim tashkilotlarida olingan sertifikatlarining tan olinishi bilan bog'liq savollar ham uchradi. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda tadqiqotimiz davomida, aynan pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida nodavlat ta'lim xizmatlariga bo'lgan ijtimoiy-pedagogik zaruratni quyidagicha asosladi: birinchidan, texnologik taraqqiyot va raqamlashtirish jarayonlari kasblar va kompetensiyalar transformatsiyasini talab etmoqda. Mazkur jarayonlar o'z navbatida, ta'lim mazmunini, xususan, malaka oshirish dasturlari, o'quv materiallarini mamlakat va jahon miqyosidagi rivojlanish strategiyalariga mos holda, ishlab chiqish, variativligini ta'minlash va amalga oshirish zaruratini belgilaydi. Ikkinchidan, forsayt ta'lim yo'nalishlari oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish ta'lim dasturlari portfelini doimiy dinamikasini talab etadi. Ya'ni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda, moslashuvchan, gibrid hamda mikroarajadagi qisqa muddatli malaka oshirish ta'lim dasturlariga talab ortib bormoqda. Uchinchidan, kompetensiyalarning yangi modeli. Bunda tayanch kasbiy bilim va ko'nikmalar o'rnini, ekzistensial kompetensiyalar, ya'ni inson hayotining barcha vaziyatlari, sohalari hamda bosqichlarida zarur bo'ladigan yumshoq kasbiy ko'nikmalar egallamoqda.

Shuningdek, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlaridagi malaka oshirish jarayonlarining o'ziga xosligi tahlil etildi (1-jadval).

Tadqiqotimiz doirasida nodavlat ta'lim muassasalarida malaka oshirish jarayonlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirildi. Bizning fikrimizcha, nodavlat ta'lim tashkilotlarida malaka oshirish jarayonlarini amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari sub'yekt tomonidan yaratilgan tashkiliy sharoitlardan farqli o'laroq, o'qituvchilar va ularning kasbiy faoliyatini, shuningdek, tinglovchilar va ularning ta'lim maqsadlariga erishish uchun faoliyatini boshqarishni ta'minlaydigan boshqaruv darajasida sub'yekt-menejer tomonidan yaratilgan shart-sharoitlardan farqli o'laroq, pedagog va tinglovchini muayyan faoliyatga yo'naltiruvchi shartlar majmui hamdir.

Bu o'z navbatida, normativ-me'yoriy hujjatlar, muhit, ta'lim mazmuni va faoliyat yo'nalishlarini muvofiqlashtirish tartiblari, ta'lim natijalariga erishish jarayonidagi ijtimoiy hamkorlik, o'zaro munosabatlar hamda sog'lom-ishchan muhit, natijalarni baholash va rag'batlantirish bilan bog'liq tegishli tashkiliy-pedagogik komponentlar integratsiyasi asosida amalga oshiriladi.

**1-jadval.****Davlat ta'lim muassasalari va nodavlat ta'lim tashkilotlarida malaka oshirish faoliyatining qiyosiy tahlili**

<b>Taqqoslash ko'rsatkichlari</b>	<b>Davlat ta'lim muassasalari</b>	<b>Nodavlat ta'lim tashkilotlari</b>
<b>Ta'lim turi</b>	Rasmiy, metodik xizmat	Rasmiy, norasmiy, informal
<b>Ta'limni rejalashtirish</b>	Markazlashgan	Marketing texnologiyalari
<b>Ta'lim mazmuni</b>	Malaka talablariga yo'naltirilgan	Malaka talablari+ehtiyohlarga yo'naltirilgan
<b>O'qitish modeli</b>	Kasbga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar hamda kompetensiyalarni rivojlantirish, korreksiya	Shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuv asosidagi rivojlantiruvchi ta'lim
<b>Ta'lim texnologiyalari</b>	An'anaviy, innovatsion	Innovatsion, modulli, masofaviy, mustaqil ta'lim
<b>Metodologiya</b>	Andragogika	Andragogika, evtagogika
<b>Nazorat va baholash</b>	Ta'lim natijalari nazorati va baholash	Ta'lim sifati menejmenti
<b>Ta'lim xizmatlarining turi va moslashuvchanligi</b>	-	Ehtiyojlardan kelib chiqqan holda taklif etiladi
<b>Ta'lim natijasi</b>	Bilim, ko'nikma va malakalar, o'zlashtirish darajasi	Bilim, ko'nikma va kompetensiyalar, shaxsiy rivojlanish
<b>Sifat menejmenti</b>	Attestatsiya va akkreditatsiya, Kuzatuv kengashi	Ijtimoiy hamkorlik, o'z-o'zini baholash tizimi, sifat menejmenti
<b>Rag'batlantirish mexanizmlari</b>	-	Moliyalashtirishni NTT hisobidan qoplanishi, vaucher va imtiyozli sertifikatlar
<b>Boshqaruv tizimi</b>	Markazlashgan boshqaruv	Akademik va moliyaviy mustaqillik

Tadqiqotlarda (E.Toffler, M.Porter, X.Mekson, F.Xedouri va boshq.) tashkilot/muassasa faoliyatini loyihalashtirishda, rejalashtirishda, faoliyat sohasidagi tahdidlar, yangi imkoniyatlarni aniqlashtirishda tashqi va ichki omillar tahlili muhim ahamiyat kasb etishi keltiriladi. Shuningdek, tadqiqot doirasida zamonaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun nodavlat ta'lim tashkilotlari



faoliyatini takomillashtirishga ta'sir etuvchi ta'lim xizmatlari sifati va uning moslashuvchanligi; infratuzilma, hududiy joylashuv; ijtimoiy imidj va kooperatsiya; kadrlar salohiyati; tinglovchi salohiyati va ehtiyojlari; akademik va moliyaviy mustaqillik; resurslarni boshqarish, benchmarking hamda assessment, monitoring, korreksiya kabi omillarga ham alohida e'tibor qaratish zarurligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.


Dissertatsiyaning **“Innovatsion yondashuv asosida nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlarning malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida innovatsion yondashuvlar asosida nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish, pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlariga ta'lim sifati menejmentini joriy etish va marketing texnologiyalari vositasida nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish mazmuni bayon etilgan.

COVID-19 pandemiyasi va mazkur davrdagi ma'lum cheklovlar ta'limning yangi trayektoriyalarining rivojlanishiga, ta'limdagi o'ziga xos yangi an'analarni shakllanishiga turtki bo'ldi. Ta'lim amaliyotiga, xususan, malaka oshirish jarayonlarida masofaviy ta'lim, onlayn ta'lim, raqamli ta'lim muhiti kabi yo'nalishlarga ehtiyoj va zarurat har doimgidanda yuqori bo'ldi. Natijada, raqamli ta'lim muhitida malaka oshirish jarayonlari innovatsion formatini transformatsiya qilish va uni yangi rivojlanish trayektoriyasini belgilab olish bilan bog'liq dolzarb vazifalar ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan o'rganila boshlandi.

Tadqiqotimiz doirasida nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim pedagoglarining malakasini oshirishning mexanizmini takomillashtirish jarayonlarini modellashtirishda Davlatning ijtimoiy buyurtmasi, ta'lim xizmatlari iste'molchilarining (ish beruvchilar, tinglovchilar) ehtiyojlari hamda mehnat bozorining talablari integratsiyasiga asoslangan jarayon tuzilmasi ishlab chiqildi (1-rasm).

Mazkur modelda ijtimoiy buyurtma va hayot davomidagi ta'lim tamoyillari hamda kompetentli, akmeologik va andragogik yondashuvlarga tayangan holda, shuningdek, sifat menejmenti strategiyasi asosida nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirishning tashkiliy-pedagogik, kvalimetrik mexanizmlarini takomillashtirish mazmuni, yo'nalishlari aks etgan. Shuningdek, modelga reflektiv-qayta tiklanuvchi va doimiy rivojlanuvchi xususiyat berish maqsadida o'zgarishlarni boshqarish va transformatsion komponent qo'shimcha sifatida kiritildi.


Ma'lumki, innovatsion yondashuv asosida malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish, ta'lim mazmuni va ta'lim jarayoniga kiritilgan har bir innovatsion element uning maqsadi va vazifalari, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining harakatlari hamda talablariga mos kelishi; qayta aloqaning ta'minlanishi, ya'ni kompetensiyalarga asoslangan yondashuv va tajribaga asoslangan o'rganish (experiential learning); ta'lim oluvchining o'quv axboroti bilan mustaqil ishlashini ta'minlash, o'qituvchining faoliyat uslubining yangi shakllarini joriy etish hamda o'z-o'zini rivojlantirish uchun motivatsiya berishi kabi talablarga javob berishi lozim.



**1-rasm. NTT pedagog kadrlar malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishning funksional-tuzilmaviy modeli**

Tadqiqot doirasida malaka oshirish auditoriyasi uchun mo'ljallangan akmetexnologiyalar sifatida quyidagilar joriy etildi: muammoli ta'lim, loyihaviy ta'lim, geymifikatsiya - (o'yin elementlaridan ta'lim kontekstida foydalanish), aralash (gibrid) ta'lim.

Ma'lumki, ta'lim xizmatlari bozorida tadqiqotlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ijtimoiy ehtiyojlarning ortishi, ilm-fan yutuqlari hamda raqamli texnologiyalarning ommalashuvi ta'lim mahsulotlarini (shu jumladan, malaka oshirish dasturlarini ham) iste'molchilarga yetkazishning eng samarali tarzda sotish mumkin bo'lgan usullari va tarqatish, yetkazish vositalarini tanlashni o'z ichiga olgan sifat menejmenti tizimini shakllantirishni taqazo etadi. Tahlillardan ko'rinadiki, sifat maqsadlarga mos kelish darajasi sifatida hozirgi kundagi eng ko'p ishlatiladigan kategoriyalardan biri hisoblanib, bunda mahsulot yoki servislarning standartlar yoki spesifikatsiyalarga muvofiqligi (Conformance to specifications or standards), sifatning maqsadga muvofiqligi (Quality as fitness for purpose), sifat mijozlarning talab va ehtiyojlariga qaratilganligini (Quality as meeting customers stated or implied needs) muhim indikatorlar sifatida xizmat qiladi. Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifati barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilganlikni, qaror qabul qilishning vositalari va usullarini, faoliyatning samaraliligini kafolatlovchi usullarni, mehnat jarayoni ishtirokchilari sa'y - harakatlarini qo'yilgan maqsadlar sari safarbar qilishni hamda jarayonning uzluksizligini ta'minlaydi. Yuqorida keltirilgan tahlillar va olib borilgan pedagogik kuzatishlar asosida nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etishning sifat menejmenti jarayoni tuzilmasi quyidagicha belgilandi (2-rasm).



**2-rasm. Nodavlat ta'lim tashkilotlarida malaka oshirish jarayonlarining sifat menejmentini takomillashtirish tuzilmasi.**

Mazkur tuzilmada, nodavlat ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim sifati menejmentini joriy etishning tizimlilik, ehtiyojlarga yo'nalganlik, benchmarking, ta'lim xizmatlari sifatining mehnat bozori talablariga mosligi tahlili, sifat monitoringi kabi tamoyillarga ustuvorlik berildi. Shu bilan birga, malaka oshirish jarayonlarining sifat menejmenti malaka oshirish kurslarida Davlat talablarining tadqiq qilinishi, ijtimoiy buyurtmaning ustuvorligi hamda malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish va uning natijalarini doimiy sifat monitoringi mazkur tuzilmada asosiy komponent sifatida belgilandi. Sifat monitoringi o'z navbatida malaka oshirishga qo'yiladigan Davlat talablari; ichki nazorat mexanizmlarining mavjudligi, ta'lim mazmunining ehtiyojlarga yo'naltirilganligi, o'quv jarayoni sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish; boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish, faoliyat natijadorligi ko'rsatkichlari (KPI), ish beruvchilarning fikr-mulohazalari, tinglovchilarning natijalari, kutiluvlarga erishilganlik darajasi, muassasaning moliyaviy strategiyalari, akademik reytingi kabi kvalimetrik ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. Mazkur baholash natijalari esa, o'z navbatida nodavlat ta'lim tashkilotining tashqi baholash, attestatsiya natijalariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim sifati va xizmatlar sifati bevosita ta'lim xizmatlari marketingi faoliyatining samarali texnologiyalarini belgilash va ulardan muvaffaqiyatli foydalanishni taqozo etadi.

Marketing texnologiyalari – ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, tashkilot/muassasaning bozordagi muvaffaqiyatli faoliyatini tashkil etish, ijtimoiy imidjini oshirish hamda asosiy maqsadlariga erishishga qaratilgan diagnostik, rivojlantiruvchi, kvalimetrik usul va vositalar, qarorlar qabul qilish jarayonlari bilan bog'liq ijodiy yondashuvlar, harakatlar majmuasidir. So'nggi vaqtlarda marketingning asosiy rivojlanish tendensiyalari raqamli kommunikatsiya texnologiyalari, axborot, internet va ijtimoiy media rivojlanishiga mos ravishda o'zgarib bormoqda. Bunda zamonaviy marketing texnologiyalari sifatida - ijtimoiy marketing, SMART marketing, interaktiv marketing, tarmoq (elektron) marketingi kabilarni keltirishimiz mumkin bo'ladi.

